

DAVLAT SIYOSATIDA XALQNING AHAMIYATI

Do‘stmurodova Jasmina Ne‘matulloyeva

Surxondaryo yuridik texnikum

Annotatsiya: *ushbu maqolada xalqning davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Unda fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, jamoatchilik nazorati hamda fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida xalqning faol ishtiroki davlat siyosatining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘z: *Xalq hokimiyatchiligi, tarixiy faktlar, referendumlari, xalqlar o‘rtasidagi ishtimoiy iqtisodiy munosabatlar, ommaviy axborot vositalari.*

Xalq – muayyan davlatning asosi va tarkibi bolib, usiz davlatni tashkil etib bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida hamda boshqa barcha qonunlar, normativ huquqiy hujjatlarda “XALQ DAVLAT HOKIMIYATINING BIRDAN BIR MANBAI” deb keltirilgan. Bunda avvalo davlat xalqning fikrini o‘rganishi, amaldor va mansabdor shaxslar o‘z “kabineti” da emas, balki xalqni qiynaydigan masalalarni hal qilish uchun joylarga borib o‘rganishi va bartaraf etishi ko‘zda tutiladi. Jahon tarixiga nazar solsak, ko‘pgina urug‘ jamoalari va qabilalar endi tashkil topayotganda mil.avv. IV asrlarda Rim imperiyasi deyarli rivojlanib bo‘lgan, ular o‘zlarini boshqaruv shaklini Respublikaga aylantirgan. Respublika lotin tilidan olingan bo‘lib “res-ish, public-xalq” degan ma’nolarni anglatadi. Ko‘rinib turibdiki, qadimgi Rimda xalq fikri o‘rganilgan va shunga binoan Senat, Deputat, Xalq tribunallari tashkil etilgan. Shu bilan birga Hind diyorida ham aholini tabaqalashtirish kuchli bo‘lgan, hattoki, yuqori lavozimli zodagonlarning ham davlat siyosatida ishtiroki sust bo‘lgan, albatta, bu davlatning rivojlanishini sekinlashtirishga sabab bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Har qanday davlat rahbari mamlakatni rivojlantirish yo‘lida birinchi o‘rinda aholi farovonligini qo‘yishi darkor. Buyuk Sohibqiron Amir Temur 24 yoshida ya‘ni 1360-yildan boshlab rasman Kesh viloyati noibi bo‘lib, shu zayilda mamlakat hududini kengaytirib, deyarli yer sharining 3/1 qismini bo‘y sindirgan. Jami 45 yil davomida kengaytirilgan mamlakat sarkardasi bo‘lgan hukmdor xalq qo‘zg‘aloniga uchramagan va aholi Temurga norozilik kayfiyatida bo‘lmagan. Sababi xalq bilardi, u adolatparvar shaxs va xalq u uchun birinchi o‘rinda. Yaqqol ko‘rinib turibdiki, xalq doim ustun, u hukmdor, podshoh, monarxni taxtdan ag‘darish kuchiga ega. Sababi agar xalq bir tan-u bir jon bo‘lsa, eng kuchli harbiy armiyani ham yenga oladi. Sohibqironning boshqaruvi monarx bo‘lsa-da, davlat siyosatini o‘rnata boshlaganda turli xil aholi tabaqalarni, jumladan, shayx-ulamolalar, zodagonlar, hunarmandlar va boshqa turdagi kasb-hunar egalari fikriga va ko‘magiga tayangan. Xalqning fikrini eshitish maqsadida ko‘p turdagi qozixonalar hamda qabulxonalar tashkillashtirgan va

mamlakatni adolatli boshqarish maqsadida xalq ustidan nazorat o‘rnatgan. Bundan viloyat hokimlari va noiblari ham mustasno emas. Ya’ni hokimiyat tepasida turgan amaldorlar qanday tartibda ish olib borayotgani ustidan kuchli nazorat bo‘lgan.

Bugunga kelib O‘zbekiston Respublikasida xalqning huquq va erkinliklari bir qancha qonun hujjatlarida, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlanib, bir qancha moddalarda belgilab berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisdagi Senat va Deputatlar kengashlari a’zolari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi xalq umumovoz referendumiga qo‘yiladi va bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 9-moddasida “Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumxalq ovozigina – referendumiga qo‘yiladi” deb keltirilgan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, davlat asosi xalq. Barcha asosiy masalalar xalqning xohish irodasiga qarab o‘rnatiladi, uning manfaatlarini ko‘zlab qayta ishlab chiqiladi yoki bekor qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 36-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek, davlat organlarning faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi. Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanadi” deb, keltirilgan bu esa mamlakatda demokratiyaning mavjudligini va barcha fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini amalga oshirishda ishtirok etishga haqli ekanligi e’tirof etiladi. Xalq saylagan Prezident va Oliy Majlis O‘zbekiston xalqi nomidan ish olib borishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 128-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqlariga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi” deb yanada mustahkamlab qo‘yilgan. E’tibor berilsa, fuqarolarning vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga ega ekanligi keltirib o‘tilgan, ya’ni bu davlat organlarida oddiy xalq bevosita vakil sifatida ham ish yuritishi mumkin.

Xalq va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yaqinlashtiruvchi yana bir manba Ommaviy axborot vositalari- bugunga kelib eng asosiy manba sifatida qaralyapti. Gap shundaki, chekka hududlarda hamda o‘z huquqlarini talab qila olmaydigan shaxslar uchun ularning dolzarb muammolari tegishli davlat organlari, qo‘mitalar yoki bo‘lmasa hokimliklarga yetib borishi uchun ommaviy axborot vositalarining xizmati katta, ular yordamida ochiqlik va shaffoflik darajasi yuqorilamoqda. Mansabdor shaxslarning faoliyati ravshanlashtirilayapti. Shuningdek, davlatimizning tashqi siyosatda olib borayotgan xalqaro diplomatik aloqalari to‘g‘ridan to‘g‘ri, joylarda xalqqa namoyish etilyapti. Ommaviy axborot vositalari faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 81-moddasi “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boriladi”, aynan shu joyida agar ommaviy axborot vositalari ishonchli va shaffof e’lonlar yoki siyosiy, global umuman istalgan mavzuda xabar chop etadigan bo‘lsa, ularga nisbatan cheklov qo‘yilmaydi va faoliyati toxtatilishiga asos bo‘la

olmaydi. Faqatgina qonunda nazarda tutilgan jarayonlar bundan mustasno. Biroq boshqa hollarda bloggerlar, jurnalistlar va jurnallar uchun ta'qiq yo'q. Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ommaviy axborot vositalari erkinligini ta'minlash, jurnalistlar faoliyatini himoya qilish va so'z erkinligini kuchaytirishga qaratigan qator huquqiy islohotlar amalga oshirmoqda. Bunga misol sifatida Prezidentning 2019-yil 2-fevraldagi PF-5653 sonli Farmoni bilan "O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi" "Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi" etib qayta tashkil qilinganligini aytish mumkin. Bu yanada davlat siyosatini ochiqlikni oshirish va raqamlashtirish texnologiyalarini kuchaytirishga qaratilgan e'tibor. Shuningdek, 2019-yil 28-may kuni Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan Toshkentda Ommaviy axborot sohasida milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishning dolzarb masalalari bo'yicha respublika konferensiyasi bo'lganligi ham ommaviy axborot vositalarini hukumat e'tibori markazida ekanligini anglatdi, sababi u qanchalik ishonchli ma'lumotlar bersa aholiga davlat va xalq o'rtasidagi munosabatni o'rganishda yengilliklar keltiradi. Biroq ba'zi hollarda ko'pgina jurnalistlar, bloggerlar ortiqcha e'tibor uchun yolg'on xabarlarini tarqatishi ijtimoiy tarmoqlarda ko'p uchramoqda va bu xalq o'rtasida noto'g'ri tushunchalar keltirib chiqarmoqda. Aslidachi, yuqorida aytib o'tilganidek ommaviy axborot vositalari xalq va hukumat o'rtasidagi asosiy vositalardan biri. Agar ular ham shaffof ishlamasa, demak hech narsa ochiq va to'g'ri emas. Jurnalistika – kunlik jahon va davlatimizda ro'y berayotgan xabarlar bilan tanishtiruvchi, jamiyatni ma'lum darajada xabardor qilish maqsadida voqealar, faktlar, g'oyalarni tarqatish sohasi hisoblanadi. Umumiy qilib aytilsa, jurnalisatika bu jurnallar, vebsaytlar, gazetalar yoki jonli efirda aholini yangi vaziyat va mavzular bilan tanishtiruvchi sohaga aytiladi. Mana shuning uchun ham jurnalistika va Ommaviy axborot vositalariga bo'lgan e'tibor hozirda har qachongidan ko'proq kuchaymoqda

Xulosa qilib aytganda, Davlat katta jamiyatdan paydo bo'lgan va jamiyat harakat qilar ekan davlat o'sadi. Jamiyat esa xalqdan tashkil topadi. Shu sababdan ham Davlat xalq manfaatlarini ko'zlasa, xalq bu imkoniyatlardan foydalanib, nafaqat ichki balki tashqi siyosatda ham iqtisodiy va diplomatik yordamini be'vosita qo'shadi. Barqaror davlatlar avvalo xalqni birinchi o'ringa qo'yganligi uchun ham bugunga kelib iqtisodiy-madaniy aloqalari davlatlararo miqiyosida birinchi o'rinda. Yuqorida aytilganidek, faqatgina davlat hokimiyati emas balki xalqning o'zi ham boshqa davlatlar aholisi bilan savdo va madaniy aloqalarni o'rnatga o'sha davlat bilan do'stlik aloqalari mustaxkamlanadi va bu davlat siyosatida xalqning o'rni borligiga yana bir isbot. Shunday ekan davlat va xalq bir biriga o'zaro chambarchasdir.

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-Toshkent:O'zbekiston,2023 (murojaat qilingan sana: 06.02.2026)

2.Siyosiy huquqlar-Toshkent:"Adolat" milliy huquqiy markazi,2023 (murojaat qilingan sana: 08.02.2026)

3.Qudratillayev J. Ilxombekov J. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining Konstitutsiyaviy asoslari (murojaat qilingan sana:26.02.2026)

4.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-elektron manba // www.lex.uz (murojaat
qilingan sana: 23.02.2026)